BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg
BG PULSE JOURNAL

O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MADANIY DIPLOMATIYANING O‘RNI

Rajabova Sabina O‘ktam qizi
Nizomiy nomidagi O‘zMPU
Tarix fakultiteti 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **Ismatullayev Farhodjon Odiljonovich**
O‘zMPU dotsenti, tarix fanlari doktori (DSc)
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.22930405

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonning zamonaviy tashqi siyosatida madaniy diplomatiyaning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Unda madaniy diplomatiyaning mazmuni, uning mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stona aloqalarni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosi, milliy qadriyatlari, san’ati va turizmi orqali xalqaro maydondagi ijobiy imijini shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi.
Kalit so‘zlar: madaniy diplomatiya, tashqi siyosat, yumchoq kuch, xalqari imij, madaniy meros, turizm.

Аннотация: В статье анализируются роль и значение культурной дипломатии в современной внешней политике Узбекистана. Рассматривается содержание культурной дипломатии и её значение в развитии дружественных отношений между государствами. Также исследуются вопросы формирования положительного имиджа Узбекистана на международной арене посредством его историко-культурного наследия, национальных ценностей, искусства и туризма.
Ключевые слова: культурная дипломатия, внешняя политика, мягкая сила, международный имидж, культурное наследие, туризм.

Abstract: The article analyzes the role and significance of cultural diplomacy in Uzbekistan’s contemporary foreign policy. It examines the concept of cultural diplomacy and its importance in developing friendly relations between countries. The article also explores the formation of Uzbekistan’s positive image in the international arena through its historical and cultural heritage, national values, arts, and tourism
Keywords: cultural diplomacy, foreign policy, soft power, international image, cultural heritage, tourism.

KIRISH. Bugungi globallashuv sharoitida davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar faqat siyosiy va iqtisodiy aloqalar bilan cheklanib qolmay, madaniy-gumanitar hamkorlik ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan madaniy diplomatiya davlatning xalqaro maydondagi imijini shakllantirish shuningdek, xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish va ishonchni mustahkamlashning muhim vositasi hisoblanadi. Madaniy diplomatiya orqali davlat o‘zining tarixi, madaniyati, san’ati, tili, milliy qadriyatlari va madaniy merosini boshqa xalqlarga tanishtiradi. Bu Madaniy jarayonlarni to‘g‘ri “boshqarish” jiddiy nizolarning oldini olishi, aksincha, global boshqaruv, hamkorlik va taraqqiyot uchun strategik resursga aylanishi mumkin. Shularni hisobga olgan holda, liberal insitutsionalizmning taniqli vakillaridan biri Joseph Nye uni “Soft Power” - “yumshoq kuch”

tushunchasi bilan izohlaydi.[1] Demak madaniyat - oddiy madaniy faoliyat emas, balki strategik resurs ham hisoblanadi.

O‘zbekiston hududi qadimdan Sharq va G‘arbni bog‘lagan Buyuk Ipak yo‘lining muhim chorrahalaridan biri bo‘lib kelgan. Bu hudud orqali nafaqat tovarlar, balki turli xalqlarning tili, dini, ilmiy bilimlari, sana’ti ham almashgan. YUNESCO ma’lumotlariga qaraganda Ipak yo‘llari bo‘ylab joylashgan shaharlar savdo bilan bir qatorda bilim va madaniy markazlar sifatida shakllangan. O‘zbekiston ham boy tarixiy va madaniy merosga ega davlat sifatida madaniy diplomatiyadan foydalanish uchun katta imkoniyatlarga ega. Samaqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlar, Buyuk Ipak yo‘li tarixi, Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar merosi mamlakatning xalqaro madaniy nufuzini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardir. Shuningdek, O‘zbekistonning madaniy diplomatiyasi faqat moddiy tarixiy obidalar bilan cheklanmaydi. Maqom, Katta ashula, askiya, palov madaniyati, Boysun madaniy makoni kabi nomoddiy madaniy meros namunalari ham xalqaro miqyosda e’tirof etilgan. UNESKO ro‘yxatida O‘zbekistonning ushbu madaniy an’analari qayd etilgan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning xalqaro aloqalarida madaniy-gumanitar hamkorlikka bo‘lgan e’tibor ortib, xalqaro tashkilotlar va davlatlar bilan madaniyat, ta’lim, ilm-fan va turizm sohalarida aloqalari kengaymoqda. Bu esa madaniy diplomatiyaning mamlakat tashqi siyosatidagi o‘rnini o‘rganishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi - O‘zbekiston tashqi siyosatida madaniy diplomatiyaning o‘rnini aniqlash, hamda mamlakatning xalqaro imijini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Madaniy diplomatiya uning xalqaro munosabatlardagi o‘rni bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotda asosiy manbalardan biri sifaida Edgar Montielning “Diplomacia cultural: Un enfoque estrategico de Politica Exterior pata la era intercultural” nomli ilmiy asaridir. Ushbu asar UNESKO ning Gvatemaladagi vakolatxonasi tomonidan 2010-yilda nashr etilgan. Unda madaniyat xalqaro munosabatlarda muhim strategik resurs sifatida baholanib, uning tashqi siyosat va diplomatiyadagi ahamiyati yoritilgan. E. Montiel madaniyatni davlatning nomoddiy kuchi sifatida ko‘rib, uning xalqlar o‘rtasidagi muloqot o‘zaro tushunish, tinchlik va hamkorlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ta’kidlaydi.

Mahalliy tarixchilardan esa Qosimova Zilola G‘ulomiddin qizi “Madaniy diplomatiya asosida davlat ijobiy imijini shakllantirish jarayonlari” (Yaponiya va Xitoy Xalq resublikasi tajribasi misolida) mavzusida siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiya yoqlagan. Bunda asosan davlat imiji va madaniy diplomatiyani shakllantirish, “yumshoq kuch” siyosatining davlat siyosiy imijining jozibadorligini oshirishga xizmat qilishi, shuningdek dissertatsiyada Yaponiya va Xitoy madaniy omil asosida davlat ijobiy imijini shakllantirishining o‘ziga xos xususiyatlarini ham tahlil qilgan. O‘zbekiston ijobiy imijini shaklantirishga xalqaro madaniy aloqalarning ta’siriga ham to‘xtalib o‘tiladi.

Bundan tashqari mahalliy tadqiqotchilar tomonidan maqolalar ham yozilgan. Ushbu ilmiy ishlardan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosi tarixiy markazlar, buyuk allomalar merosi, milliy va san’at asarlarining mamlakat tashqi siyosatidagi madaniy diplomatiya sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston tashqi siyosatida madaniy diplomatiyaning o‘rnini aniqlashda maqsadida tarixiy, qiyosiy, tizimli va kontent-tahlil usullardan foydalanilgan. Tarixiy

[1] Dr.Edgar Montiel. DIPLOMACIA CULTURAL UN ENFOQUE ESTRATEGICO DE POLITICA EXTERIOR PARA LA ERA INTERCULTURAL - Guatemala.:Sergrafica,S.A,2010. - a-5

metod yordamida O‘zbekiston hududida qadimdan mavjud bo‘lgan tarixiy shaharlar va ilmiy madaniy merosning bugungi madaniy diplomatiya bilan bog‘liqligi o‘rganiladi. Maqolada shuningdek, ilmiy adabiyotlar va ilmiy maqolalar, O‘zbekiston Respublikasining rasmiy hujjatlari, saytlari va UNESKO materiallari kontent-tahlil usuli orqali o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJA. O‘zbekiston hududi qadimdan turli xalqlar va madaniyatlar o‘zaro aloqada bo‘lgan muhim strategik hudud hisoblanadi. Ayniqsa Buyuk Ipak yo‘li orqali savdo bilan birga madaniyatlar, ilm-fan almashgan. Bu tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki bugungi kunda O‘zbekistonning xalqaro madaniy aloqalarini rivojlantirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi shaharlar O‘zbekiston tarixiy qiyofasini dunyoga namoyish etuvchi muhim markazlardir.

Ayniqsa, Samarqandning xalqaro madaniy diplomatiyadagi o‘rni alohida ahamiyatga ega. Samarqandning qadimdan turli sivilizatsiyalar, xalqlar va madaniyatlar uchrashgan hudud bo‘lib kelgan. UNESKO uni “Crossroad of cultures” “Madaniyatlar chorrahasi” sifatida e’tirof etgan. [2] Har bir davlatni dunyoga ko‘rsatuvchi narsa bu uning madaniyati hisoblanadi. O‘zbekistonning madaniy diplomatiyasida UNESKO bilan hamkorlik alohida o‘rin egallaydi. O‘zbekiston 1993-yildan buyon UNESCO a’zosi hisoblanadi. Tahkilot ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda jahon merosi obyektlari, nomoddiy madaniy meros namunalari va “Memory of the World” dasturiga kiritilgan meros obyektlari mavjud. UNESCO bilan hamkorlik O‘zbekistonning madaniy boyliklarini xalqaro darajada tanitish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik mamlakatning madaniy merosini muhofaza qilish sohasidagi tajribasini rivojlantirishga yordam beradi. Bugung kunga kelib O‘zbekiston hududidagi beshta madaniy va ikkita tabiiy obyektlar Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. UNESCO ro‘yxatidagi obyektlar tarixiy shaharlar va hududlarning xizmat sifatini oshiradi, xalqaro sayyohlar va investorlar e’tiborini tortadi, natijada barqaror turizmni rivojlantirishga yordam beradi. Mana shunday madaniy diplomatiya orqali mamlakat iqtisodiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham har doim madaniy merosni avaylab undan xalqaro maydonda O‘zbekistonning ijobiy imijini shaklantirishga intilish lozim.

O‘zbekiston madaniy diplomatiyasining so‘nggi yillardagi eng katta yutuqlaridan biri UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining Samarqandda o‘tkazilishi bo‘ldi. 2025-yil 30-oktabrdan 13-noyabrgacha bo‘lib o‘tgan nufuzli xalqaro forumda UNESCO ga a’zo davlatlarning vakillari ishtirok etdi. Konferensiyaning Samarqandda o‘tkazilishi O‘zbekistonning xalqaro nufuzini oshirish va mamlakatning boy tarixiy merosini jahon miqyosda targ‘ib qilish uchun muhim imkoniyat yaratdi. Bu juda ham katta ham madaniy ham siyosiy tadbir edi. Ushbu tadbir tarixiy ahamiyatga ega: qariyb 40 yil ichida birinchi marta UNESCO sessiyasi Parijdan tashqarida, Samarqand mezbon shahar sifatida xizmat qilish sharafiga muyassar bo‘ldi.[3]

Ushbu tadbirning madaniy diplomatiya nuqtayi nazaridan ahamiyati shundaki, Samarqand shahrining o‘zi xalqaro muloqot vositasiga aylandi. Konferensiya doirasida O‘zbekiston tomonidan inklyuziv ta’lim, sun’iy intellect, madaniy merosni asrash, muzeylar faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kabi yo‘nalishlarda qator takliflarni ilgari surdi. Shuningdek, Buxoroda zamonaviy san’at biannalesi, Toshkentda UNESCO bilan bog‘liq ta’lim markazi kabi tadbirlar ham konferensiya doirasida tashkil etildi.[4] Bu tarixiy konferensiyani yoritish uchun esa dunyoning yetakchi OAV dan 500 dan ortiq jurnalist va muhbirlar ishtirok etgan. Bu orqali

[2] UNESCO world Heirtage Centre Uzbekistan- UNESCO World Heitage Convention
[3] https://share.google/q6vhecJwbYs1PuYWn Silk Road Samarkand to host the 43rd session oof the UNESCO General Conference
[4] O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali

O‘zbekiston tarixiy-madaniy salohiyatini keng qamrovli auditoriyaga namoyish etish imkoniyati yaratilganidan ham dalolat beradi. Tadbir shuningdek, O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan aloqasini mustahkamlash bilan birga mamlakatning tarixiy-madaniy merosga boy davlat sifatida xalqaro imijini yanada kuchaytirdi.

Ko‘rgazmalar, xalqaro festivallar madaniyat haftaliklari mamlakatni estetik va madaniy jihatdan tanitish uchun samarali vosita hisblanadi. Prezidentimiz tomonidan xorijiy davlatlarga amalga oshirilayotgan tashriflar dorasida madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish maqsadida imzolangan hujjatlarga asosan hamkor davlatlarda “O’zbekiston madaniyat kunlari o‘tqazib kelinmoqda. Xususan 2017-2020-yillarda dunyoning 20 ga yaqin davlatida “O‘zbekiston madaniyat kunlari” tashkil etilgan bo‘lsa, 2021-2024-yillarda bu ko‘rsatlich 40 taga yetdi. Shuningdek, 2024-yil 26-30- aprel kunlari Xiva shahrida “Lazgi” ikkinchi xalqaro raqs festivali, 3-5-may kunlari Buxoro shahrida “Ikkinchi xalqaro zardo‘zlik va zargarlik” festivali, 27-30-iyun kunlari Zomin tumanida Ikkinchi xalqaro maqom san’ati anjumani, 26-30-avgust kunlari Samarqand shahrida “Sharq taronalari” XIII xalqaro musiq festivali yuksak saviyada o‘tkazildi. [5] Ushbu tadbirlarda turli davlatlarda ko‘plab san’atkorlar, ijodkorlar, mutaxassislar va sayyohlarning ishtirok etishi O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi bilan tanishish imkonini bermoqda. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlarning xalqaro festivallarga mezbonlik qilishi mamlakatning tarixiy va madaniy salohiyatini jahon jamoatchiligiga namoyish etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muzeylar, tarixiy obidalar turizm va madaniy diplomatiyaning asosiy komponetlaridan biri. O‘zbekistonning Ipak yo‘li shaharlaridagi arxitektura va eksponatlar xalqaro auditoriyani jalb qiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda O‘zbekistonda muzeylar faoliyatiga katta e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, O‘zbekistondagi Islom silivilizatsiyasi markazi dunyoda e’tirof etilmoqda va global omma e’tiborini jalb qilmoqda. Bu markaz nafaqat muzey, balki keng miqyosda ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanadi, shuningdek xalqaro miqyosda anjumalar ham bo‘lib o‘tadi. Hozirda Islom sivilizatsiya markazi turistlar bilan gavjum, shuningdek ijtimoiy tarmoqlarda ham turli davlat sayohatchilari tomonidan turli xil kontentlar ham chiqarilmoqda va bu ham ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilariga O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosi haqida taassurot uyg‘otmoqda. O‘zbekistonning yana milliy naqsh va hunarmandchilik buyumlaridan ham O‘zbekiston imiji uchun vosita sifatida foydalanish mumkin. Milliy naqsh namunalari zamonaviy dizayn bilan uyg‘unlashtirib O‘zbekiston brendi yuzi bo‘lishi mumkin. Bunday mahsulotlar xalqaro bozorlarga chiqarilganda “Made in Uzbekistan” imijini estetik jihatdan boyitadi va turizm bilan birga eksport salohiyatini ham oshirishi mumkin.

Tarixiy kino va seriallar ham mamlakatning tarixi, madaniyati, ilmiy merosi, arxitekturasi, qadriyatlarini tanitishda muhim hisoblanadi. O‘zbek-turk kino ijodkorlari tomonidan suratga olingan “Mendirman Jaloliddin” tarixiy seriali ham xalqaro maydonga aks-sado berdi. Bu serialning birinchi fasli 2021-yilda, ikkinchi fasli esa 2023-yilda efirga uzatildi. Serialning birinchi qismi chiqishidanoq turli davlatlarda katta qiziqish bilan kutib olindi. Jumladan, Pokistonda shu qadar ommalashib kettiki, serialning urdu tilidagi subtitorlar bilan efirga uzatila boshladi.[6] Serialda

[5] XALQARO MAYDONDA MADANIY DIPLOMATIYA O‘RNI https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7481-xalqaro-maydonda-madaniy-diplomatiyani-o-rni.html

[6] Emrah Aydemir. Dış politikada stratejik bir değer olarak yumuşak güç unsurunun medyada kullanımı: Amerika Birleşik Devletleri ve Türkiye’nin kamu diplomasisinde medyanın kullanımının karşılaştırılması. Doktora Tezi. İstanbul: İstanbul Üniversitesi. 2015. s.334.

Anushtegin Xorazmshohlar sulolasining so‘nggi sultoni Jaloliddin Manguberdining faoliyatiga bag’ishlangan bo‘lib, shuningdek serialda o‘sha davr muhiti, me’morchiligi, an’analari ham aks etgan. Serial orqali o‘zbek-turk kino jodkorlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaydi. Bundan tashqari tarixiy seriallar milliy madaniyatni, milliy va o‘zlik masalalari xalqaro maydonda namoyon eta oladigan tanita oladigan, madaniy diplomatiya faoliyati doirasida strategik ahamiyatga ega.

Madaniy diplomatiyaning O‘zbekiston tashqi siyosatidagi ahamiyati faqat madaniy tadbirlar bilan cheklanib qolmaydi. U mamlakatning xalqaro imijini shakllantirish, xorijiy jamoatchilik bilan muloqotni kuchaytirish va davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlashning muhim vositalaridan biridir. Ayniqsa, O‘zbekistonning boy-tarixiy madaniy merosi mamlakatning “yumchoq kuch” salohiyatini oshirish uchun katta imkoniyat yaratadi. So‘nggi yillarda ushbu yo‘nalish O‘zbekistonning tashqi siyosiy faoliyatida tobora faol qo‘llanilmoqda.[7]

Madaniy diplomatiyaning yana bir muhim jihati shundaki xalq diplomatiyasi bilan chambarchas bog‘liqligidir. Turli mamlakatlarda O‘zbekiston madaniyati kunlarini o‘tkazish, san’atkorlar va ijodkorlarning xalqaro festivallarda ishtirok etishi, ko‘rgazmalar va ilmiy anjumalarning tashkil etilishi xalqlar o‘rtasidagi bevosita aloqlarni ham kuchaytiradi. Hozirgi kunda davlatlar o‘rtasida mdaniy-gumanitar hamkorlik rivojlanib boryapti.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston tashqi siyosatida madaniy diplomatiya muhim strategik vositalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosi, qadimiy shaharlari, ilm-fan va san’at rivojiga qo‘shgan hissasi xalqaro maydonda O‘zbekistonning ijobiy imijini shakllantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Madaniy diplomatiya orqali O‘zbekiston nafaqat o‘zining tarixiy va ma’naviy merosini dunyoga tanitmoqda, balki davlatlar va xalqlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, ishonch va do‘stona munosabatlarni mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. Shuningdek, zamonaviy davrda madaniy diplomatiyaning imkoniyatlarini ijtimoiy tarmoqlar, raqamli media va turizm targ‘iboti orqali yanada kengaytirish mumkin. O‘zbekistonning tarixiy obidalari, milliy naqshlari, an’ana-qadriyatlari va zamonaviy madaniy hayotini ham xalqaro auditoriyaga faol namoyish etish mamlakatning turistik va siyosiy imijini yanada mustahkamlaydi. Umuman olganda madaniy diplomatiya O‘zbekiston tashqi siyosatining “yumshoq kuch” imkoniyatlarini kuchaytiruvchi muhim yo‘nalishdir. Kelgusida tarixiy-madaniy merosni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish, xalqaro madaniy loyihalarni ko‘paytirish va yoshlarning xalqaro almashinuvdagi ishtirokini kengaytirish O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Takliflar O‘zbekiston xalqaro miqyosdagi kino ijodkorlar bilan hamkorlikni davom ettirish kerak. O‘zbek xalqini ijobiy imijini yuksaltira oladigan tarixiy kino-seriallar uchun mavzu va qahramonlar juda ham ko‘p. Ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davri, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi bir necha o‘nlab mutafakkirlar va dunyo tamadduniga katta hissa qo‘shgan shaxslar borki, ularni kino-seriallar bosh qahramoni sifatida gavdalantirish orqali millionlab insonlarga o‘zbek xalqining salohiyatini ko‘rsatish mumkin.

Yana bir taklif - O‘zbekistonning madaniy diplomatiyasini ijtimoiy tarmoqlarda faol targ‘ib qilishdir. Bugungi kunda Instagram, YouTube, Fasebook kabi platformalar orqali mamlakatning tarixi, milliy taomlari, hunarmandchiligi, musiqasi, milliy kiyimlari va urf-odatlarini qisqa va sifatli videolar orqali dunyo auditoriyasiga yetkazish mumkin. Bunda ayniqsa xorijiy tillardagi kontentlarni ko‘paytirish ayniqsa muhim hisoblanadi.

[7] Musulmon Ziyo, O‘zA, XXI asr global siyosati klassik diplomatiya doirasidan chiqib, ma’no, qadriyat va madaniy ta’sir maydonga aylanmoqda UZA.uz https://share.google/rG1sXsoYyDub3k4BF

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dr.Edgar Montiel. DIPLOMACIA CULTURAL UN ENFOQUE ESTRATEGICO DE POLITICA EXTERIOR PARA LA ERA INTERCULTURAL - Guatemala.: Sergrafica, S.A,2010. - a-5
2. UNESCO world Heirtage Centre Uzbekistan- UNESCO World Heitage Convention
3. https://share.google/q6vhecJwbYs1PuYWn Silk Road Samarkand to host the 43rd session oof the UNESCO General Conference
4. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali
5. XALQARO MAYDONDA MADANIY DIPLOMATIYA O‘RNI https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7481-xalqaro-maydonda-madaniy-diplomatiyani-o-rni.html
6. Emrah Aydemir. Dış politikada stratejik bir değer olarak yumuşak güç unsurunun medyada kullanımı: Amerika Birleşik Devletleri ve Türkiye’nin kamu diplomasisinde medyanın kullanımının karşılaştırılması. Doktora Tezi. İstanbul: İstanbul Üniversitesi. 2015. s.334.
7. Musulmon Ziyo, O‘zA, XXI asr global siyosati klassik diplomatiya doirasidan chiqib, ma’no, qadriyat va madaniy ta’sir maydonga aylanmoqda UZA.uz https://share.google/rG1sXsoYyDub3k4BF